

**Teatr pedagogikasi vositasida talaba-yoshlarda badiiy-kreativlik
kompetensiyalarini rivojlantirishning shakl, uslub va vositalari**

Axmedova Gulnoza Faxrutdin qizi
Urganch davlat pedagogika instituti
“Maktabgacha ta’lim va tabiiy fanlar”
kafedrası o‘qituvchisi
E-mail: gulnozaaxmedova7496@gmail.com
Orcid 0009-0005-8439-4119
e-mail: gulnozaaxmedova7496@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada bola tarbiyasida teatr pedagogikasining o‘rni, yosh avlodni teatr san’ati bilan tarbiyalash borasidagi tahlillar yoritilgan. Teatr pedagogikasining ahamiyati, teatrshunos olimlarning olib borgan tadqiqotlarida teatr san’atiga tarbiyaning ilg‘or vositasi sifatida qarash insonni kashf etishga yo‘l ochishligi, shuningdek, teatr pedagogikasi umumiy pedagogika tarbiya nazariyasining alohida yonalishi bo‘lib, u teatrlashtirish faoliyatida bola shaxsining o‘z-o‘zini ifoda etishini ta’minlovchi usullar tizimini o‘z ichiga olishi haqidagi ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogika, badiiy ta’lim, badiiy madaniyat, ta’lim jarayoni, ta’lim usullari, innovatsion texnologiya, teatr pedagogika, ijodkorlik, qobiliyat, shaxs.

Teatr vositasida aniqlash ko‘nikmalarini jadal rivojlantirishga qaratilgan ma’lumotlar almashish, qayta ishlash, xulosa, qaror chiqarish komponentlarining o‘zaro integrativ xossalarini barqaror va izchil hisobga olish asosida takomillashtirilgan (2.1-rasmga qarang). Mazkur model talaba-yoshlarda badiiy-kreativ kompetensiyalarini rivojlantiradi. Uning komponentlaridan strategik maqsadning to‘g‘ri qo‘yilishi ish samaradorligining oshirilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Maqsadli komponent. Model elementining tuzilish strukturasi o‘rganilayotgan jarayonning asosiy komponenti bo‘lgan maqsad-talabalarning o‘quv faoliyatini samarali tashkil erish orqali badiiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Ushbu maqsadni amalga oshirish, o‘zining me‘yoriy-huquqiy asosiga ega bo‘lib, me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar doirasida zarur vazifalar amalga oshirib borildi. Maqsadli komponentda ijtimoiy zarurat sifatida belgilangan me‘yoriy-huquqiy asoslardan kelib chiqib, talabalarni “Pedagogik mahorat” va “Bolalarni saxnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish” darslarida o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish orqali badiiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirildi.

Mazmunli-prosessual komponentida oliy ta’lim talabalarining badiiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirish-“Bolalarni saxnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish” fani yuzasidan ta’limiy yondashuvlar, mexanizmi, metodikasi va baholash

mezonlari asosida amalga oshirish hamda talabalarning badiiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirish bosqichlari nazarda turilgan.

Natijaviy-baholash komponenti. Komponent yondashuv ta'lim maqsadlarini belgilashning umumiy tamoyillari, ta'lim mazmunini tanlash, ta'lim jarayonini tashkil qilish va ta'lim natijalarini baholash yig'indisidir. Natijaviy baholash komponenti talabalarning badiiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlanganligini baholash mezonlari va natijalaridan iborat. Talabalarining badiiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlanganligi "yuqori", "o'rta", "past" darajalari bo'yicha baholandi.

Tadqiqotimiz doirasida amalga oshirilgan kuzatuv, empirik o'rganish va tahlillarimiz mazkur model quyidagi o'zaro bog'liq funksiyalarni bosqichma-bosqich integratsiyalash orqali amalga oshirilganda samarali bo'ladi degan xulosaga kelish imkonini berdi:

- fanlararo aloqadorlik asosida badiiy-ijodiy kompetensiyani hosil qiluvchi, fikrlashga undaydigan pragmatik o'quv topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;

- turli uslubdagi matnlardan, o'quv materiallaridan foydalangan holda fanlararo aloqadorlik asosida badiiy-ijodiy kompetensiyani oshiruvchi topshiriqlar ishlab chiqish;

- turli nutq vaziyatiga mos matnlardan foydalanilganda fikrlashga yo'naltiruvchi savol va topshiriqlar talabalarda matn va matndan tashqaridagi ma'lumotlarni mavzuga bog'lay olish, matn osti ma'nolarni kalit so'zlar asosida aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lishda badiiy-ijodiy kompetensiyani rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari ishlab chiqish va amaliyotda foydalanish;

- Saxna ko'rinishi mashg'ulotlarida badiiy-ijodiy kompetensiyani rivojlantirishda fanlararo aloqadorlikdan foydalanish bo'yicha metod, usul va texnologiyalarni taklif qilish.

Quyida tadqiqotimiz doirasida takomillashtirilgan teatr pedagogikasi vositasida talaba-yoshlarda badiiy-ijodiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasining tarkibiy qismi sifatida "Pedagogik mahorat" va "Bolalarni saxnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish" darslarida foydalanishga doir interfaol metodlardan namunalar keltiramiz.

Talabalarning hayoti esa teatr va o'yin faoliyatida mujassamlangan o'yin hamda turli xil metod turlarining integratsiyasi bilan boyitiladi.

Tushuntirish metodi. Bunda mutafakkirlar tomonidan ilgari surilgan barkamol shaxsni tarbiyalashning konseptual asoslari talabalar ongiga tushuntirish metodi yordamida yetkaziladi. Barkamollikning tarkibiy qismlari va unga oid asosiy tushunchalar tahlil qilinadi. Professor-o'qituvchilar mutafakkirlar ilgari surgan asosiy g'oyalarni ajratib olib ularni talabalar bilan birgalikda muhokama qiladilar, aniq dalillar va misollar yordamida tushuntirishga intiladilar.

Ajdodlarimizning Teatr pedagogikasi vositasida talaba-yoshlarda badiiy-kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan tajribalarini talabalar ongiga yetkazishda **reproduktiv metod** ham bir qadar samarali hisoblanadi. Talabalar faoliyat algoritmlari yordamida bosqichma bosqich mutafakkirlarning shaxsni mustaqil, erkin fikrlashga undovchi g'oyalarni tahlil qiladilar va o'zlashtiradilar

Refleksiya metodi yordamida Teatr pedagogikasi vositasida talaba-yoshlarda badiiy-kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish nuqta nazaridan kasbiy e'tiqodlari har tomonlama tahlil qilinadi. Ular egallayotgan kasbiy bilim, ko'nikma va kasbiy kompetensiyalardagi bo'shliqlar aniqlanib, kompensatsiya usuli yordamida to'ldiriladi.

Talabalarda tajriba hosil qilish uchun **tahlil qilish, umumlashtirish, refleksiyalash** metodlaridan

Mutafakkirlarning Teatr pedagogikasi vositasida talaba-yoshlarda badiiy-kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan tajribalari va amaliy harakatlari professor o'qituvchilar tomonidan **muammoli bayon** metodidan foydalangan holda talabalar ongiga yetkaziladi. Bunday bayon talabalarni bahs-munozaraga kirishishga undaydi. Tarixiy tajribalar ustida mantiqiy fikrlash chuqur o'ylash operatsiyalari amalga oshiriladi. O'quv materiallarni muammoli bayon qilish metodida qo'llash natijasida talabalarda badiiy-kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladigan ko'plab metodlardan foydalanish imkoniyati vujudga keladi.

Keys. Ushbu metod yordamida talabalarga Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan pedagogik ta'limotlar taqdim etiladi. Natijada ularda madaniy-axloqiy va kasbiy sifatlar ezgu amallarni bajarishga rag'bat va ijtimoiy madaniy mobillik kabi sifatlar shakllantiriladi.

Imitatsiya metodi talabalar ko'z o'ngida tarixiy jarayonlar va tarixiy shaxslarni gavdalanitirishga xizmat qiladi. Aynan bu metod amaliy ishlamada ilova qilingan

Evristik izlanish metodi yordamida ham mutafakkirlarning Teatr pedagogikasi vositasida talaba-yoshlarda badiiy-kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishga oid g'oyalari talabalar tomonidan to'planadi, tahlil qilinadi va o'zlashtiriladi. Bunday metod sirasiga evristik suhbatlarni kiritish mumkin. Talabalarni mutafakkir ajdodlarimizning merosini o'rganishga nisbatan qiziqish uyg'otishda evristik suhbatlar alohida o'rin egallaydi. Professor-o'qituvchilar evristik suhbat metodi yordamida mutafakkirlarning hayotbaxsh, shaxsni ezgu amallarni bajarishga undovchi g'oyalardan bo'lajak o'qituvchilarni xabardor qiladilar. Natijada talabalarga mutafakkirlarning pedagogik hamda badiiy estetik mazmundagi asarlarni o'rganishga bo'lgan qiziqish shakllanadi. Mazkur metod talabalarni izlanishga kitobxonlikka, mustaqil bilim olishga da'vat qiladi.

Tadqiqotchilik metod. Ushbu metod yordamida mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan didaktik hamda badiiy asarlar ustida talabalar kichik tadqiqotlar o'tkazadilar, referatlar, kurs ishlari va malakaviy bitiruv ishlarini yozadilar. Shu bilan

bir qatorda mazkur asarlar ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini ham hosil qiladilar (talabalarning ishlarida ilovada misol keltiring). Shu tariqa ularda turli manbalarni mustaqil tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanib, ilmiy tadqiqot faoliyatini amalga oshirish motivlari shakllanadi. Mazkur metod talabalarga mutafakkirlarning asarlari bilan yaqindan tanishish ularni har tomonlama chuqur tahlil qilish ushbu asarlar haqidagi ilmiy manbalarni o'rganish imkonini beradi.

“Kundaliklar” metodi – ma'lum vaqt oralig'ida guruhning har bir a'zosi tomonidan tug'ilgan g'oyalari yozib boriladi va ular guruhda tahlil qilinib, bitta o'rtacha fikrga kelinadi.

Metodning maqsadi: talabalarda yakka va jamoaviy ijodiy faoliyat ko'nikmalarini, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, turli shakldagi ijodiy faoliyatni egallash malakalarini integrativ hosil qilish.

O'tkazish tartibi:

birinchi bosqich: guruhning har bir ishtirokchisi yakka holda ishlash uchun o'qituvchi tomonidan tayyorlab kelingan tarqatma materiallardan birini tanlab oladi. Tarqatma materialda mavzu yuzasidan tayanch tushunchalarning nomi yozilgan. Tinglovchi yakka tartibda tayanch tushunchalar haqida bilganlarini jadval ko'rinishida shakllantiradilar.

ikkinchi bosqich: talabalar yakka tartibda mavzuga doir tayanch tushunchalar ishtirokida kundalik faoliyatlarini og'zaki va yozma tarzda ifodalaydilar. Mazkur vazifa jamoaviy tarzda ham amalga oshirilishi mumkin.

uchinchi bosqich: talabalarning mavzuni o'zlashtirganlik darajasini aniqlashga doir savol-javob o'tkaziladi.

to'rtinchi bosqich: talabalar faoliyatini baholash.

“6-6” metodi – guruhning olti a'zosi 6 minutda masala yechimi bo'yicha alohida-alohida o'z fikrlarni va o'z variantlarini yozishadi, keyin guruhda tahlil qilinib, eng muhimi tanlab olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. “Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-600 sonli Farmoni. - T., 2020.
2. Hafiz Abdusamatov: “Drama nazariyasi” - G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent - 2000.
3. Uzoq Jo'raqulov: “Nazariy poetika masalalari” - G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2015.
4. Stanislavskiy K. S. “Aktyorning o'z ustida ishlashi”. T.Xo'jayev tarjimasi.- T.: (qayta nashr) Badiiy adabiyot, 2010.
5. Abdusamatov Hafiz: «Drama nazariyasi» - G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent - 2000.

6. Mirziyoyev Sh. «Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-600 sonli Farmoni. - T., 2020.
7. Kabilov N. TEATR PEDAGOGIKASINING BOLA TARBIYASIDA TUTGAN O‘RNI. ЖУРНАЛ. Oriental Art and Culture. 2023
8. Рафиқова Д., Азимов У. ТАЪЛИМНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ВА ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2 (81). – С. 167-169.
9. Rafikova D. et al. Preparing to innovative activity: Problem solving //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2023. – Т. 2789. – №. 1.
10. Maktabgacha pedagogika F.R. Qodirova, Sh. Q. Toshpo'latova, N.M. Kayumova, M. N. A'zamova "Tafakkur" Nashriyoti Toshkent – 2019